

2. Protsessual hujjatlarga avtomatik ishlov berish

Maqsad: mavzu mazmunini real vaziyat orqali anglash, uni modelga aylantirish va algoritmik yechim shaklida ifodalash.

1-topshiriq. Arizalarni avtomatik ro'yxatga olish jadvalini tuzish

Matnli algoritmik masala bayoni: Litseyda talabalar turli arizalar topshiradi: ma'lumotnoma olish, to'garakka yozilish, imtihonni qayta topshirish. Kotib har bir arizani qo'lda ro'yxatga olmoqda. Jarayonni avtomatlashtirish kerak.		
Hayotiy vaziyat / grafik tasvir	Mental model	Algoritmik yechim / blok-sxema
Har bir arizada talaba F.I.Sh., guruh, ariza turi, sana va ijro muddati bor. Kotib arizalarni tartib raqami bilan ro'yxatga oladi va muddatdan kechikkanlarini aniqlaydi.	Hujjat maydonlari: ID, F.I.Sh., guruh, ariza turi, kelgan sana, ijro muddati, holat. Agar joriy sana ijro muddatidan oshsa va holat "bajarildi" bo'lmasa — "kechikkan" deb belgilanadi.	1) Ariza uchun standart maydonlarni belgilash. 2) Har bir arizaga avtomatik ID berish. 3) Sana va ijro muddatini kiritish. 4) Holat ustunini yaratish. 5) Shartli tekshiruv orqali kechikkan arizalarni aniqlash. 6) Yakuniy ro'yxatni filtr orqali chiqarish.
O'quvchi bajaradigan ish: Talaba hujjat aylanishi jadvalini loyihalaydi va kechikkan arizalarni avtomatik aniqlash qoidalarini yozadi.		

2-topshiriq. Shablon asosida buyruq loyahasini avtomatik tayyorlash

Matnli algoritmik masala bayoni: O'quv bo'limi bir xil shakldagi buyruqlarni ko'p tayyorlaydi. Faqat talaba ismi, guruh, sana va buyruq sababi o'zgaradi. Hujjat shabloni asosida jarayonni tezlashtirish talab qilinadi.		
Hayotiy vaziyat / grafik tasvir	Mental model	Algoritmik yechim / blok-sxema
O'quv bo'limi xodimi Word hujjatida takrorlanuvchi matn har safar qayta yozadi. Xatoliklar ko'p uchraydi. Maqsad: maydonlarni avtomatik almashtirish.	Shablon maydonlari: {FISH}, {GURUH}, {SANA}, {SABAB}. Ma'lumotlar manbasi: jadval. Algoritm: har bir satr uchun shablondagi maydonlarni mos qiymatlar bilan almashtirish.	1) Doimiy matnni ajratish. 2) O'zgaruvchi maydonlarni belgilash. 3) Ma'lumotlar jadvalini yaratish. 4) Shablondagi belgilarni jadval qiymatlari bilan bog'lash. 5) Har bir yozuv uchun alohida hujjat hosil qilish. 6) Tayyor hujjatlarni nomlash va saqlash.
O'quvchi bajaradigan ish: Talaba buyruq shabloni va ma'lumotlar jadvalini loyihalaydi, so'ng "maydon — qiymat — natija" bog'lanishini ko'rsatadi.		